

Yer uchastkasini kompensatsiya evaziga davlat va jamoat ehtiyoji uchun olib qo'yilishi bo'yicha tashabbuskor va mulk egalari o'rtasida o'tkazilgan ochiq muhokama yuzasidan

BAYON №3

____.05.2024-yil

Uchqo'rg'on tumani

Boshlandi: soat 11:00

Tamomlandi: soat 14:00

Tashabbuskor

Mulk egasi

Tuman hokimi v.v.b B.To'lamirzayev

6 nafar fuqarolar

Bayonlashtiruvchi:

(ilova ro'yxati)

Taklif etilganlar:

T.Ataxanov

**Tuman hokimining o'rinbosari S.Xojayev,
Tuman qurilish bo'limi boshlig'i M.Tursunov,
Tuman kadastrlar palatasi Sh.Xamdammov,
Ko'prikboshi va Qumto'g'on MFY raislari,**

KUN TARTIBIDAGI MASALA:

Tuman chegara xududida joylashgan Ko'prikboshi, Qumto'g'on va Yog'du MFYlarida yashovchi hamda noturar obyektlari buzilishga tushgan mulk egalari bilan ochiq muhokama.

Uchqo'rg'on tumani hokimi v.v.b. B.To'lamirzayev (matnda "tashabbuskor"- deb yuritiladi) Uchqo'rg'on tumani chegara hududida joylashgan Ko'prikboshi, Qumto'g'on va Yog'du MFYlarida yashovchi hamda noturar obyektlaridan foydalanuvchi 33 nafar fuqarolar jumladan kelishuvga erishilgan 8 nafar fuqarolar ishtirokida (matnda "mulk egalari"- debyuritiladi) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2023-yildagi 187-26 -maxsus sonli topshiriq xatiga asosan, Uchqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida xatlov o'tkazish hamda yakuni bilan ayrim turar va noturar obyektlarni boshqa hududga ko'chirish munosabati bilan buzilishga tushgan obyektlar chegara hududiligini bildirib, mulk egalari qarorlarni va boshqa hujjatlarni ko'rsatib, kadastr hujjatiga asosan tegishli bo'lgan barcha mulklarini mustaqil baholovchida bozor baholovchida, baholagan qiymatni belgilangan tartibda kelishgan holda to'lab berilishi taklifini bildirdi.

Shundan so'ng, "Tashabbuskor" O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 29-iyunda qabul qilingan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib taomillari to'g'risida"gi (O'RQ-781-sonli) Qonun bilan tanishtirib, buzilishga tushgan mulklarni aniqlash, ularni baholash, qiymatini to'lanish tartiblarini tushuntirdi.

"Mulk egalari" "Tashabbuskor" taklifi va taqdim qilingan barcha hujjatlar bilan tanishib chiqish uchun hamda maslahatlashi bolish uchun biroz vaqt so'rashdi.

So'ng "Mulk egalari" taqdim qilingan barcha hujjatlar bilan tanishib chiqib, uning taklifiga rozi bo'lib, o'zlariga tegishli bo'lgan barcha mulklarni mustaqil baholovchidan o'zlari bozor bahosida baholatib, baholash hisobotini "Tashabbuskor"ga taqdim qilish larini bildirishdi.

"Tashabbuskor" tuman qurilish bo'limi M.Tursunov, kadastrlar palatasi rahbari Sh.Xamdammovlarga mulk egalari mulklarini qiymatini aniqlash zarur bo'ladigan barcha hujjatlarni etkazib berishda amaliy yordam berish lozimligini tushuntirdi.

Yuqoridagilarga ko'ra, "Tashabbuskor" va "Mulk egalari" o'rtasidagi o'zaro kelishuv munosabatlarini kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 iyunda qabul qilingan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish tartib taomillari to'g'risida"gi (O'RQ-781-sonli) Qonun 20-moddasiga qo'llanib yig'ilish

QAROR QILADI:

1. Uchqo'rg'on tumani hokimi B.To'lamirzayev (matnda "tashabbuskor"- debyuritaladi) Uchqo'rg'on tumani chegara xududida joylashgan Ko'prikboshi, Qumto'g'on, Soxil va Yog'du MFYlarida yashovchi hamda noturar obyektlaridan foydalanuvchi 33 nafar fuqarolar (matnda "mulk egalari"-debyuritaladi) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2023 yil dagi 187-26 - maxsus sonli topshiriq xatiga asosan, Uchqo'rg'on tumanining Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara hududlarida xatlov o'tkazish xamda yakuni bilan ayrim turar va noturar ob'ektlarni boshqa xududga ko'chirish munosabati bilan buzilishga tushgan bino inshootlarini ro'yxatini tasdiqlash haqidagi 1432-sonli va mahalliy Kengash Huquq egalari bilan ochiq muhokama haqidagi qarori ma'lumot va asos uchun qabul qilinsin.


2. "Tashabbuskor" va "Mulk egalari" o'rtasida o'tkazilgan ochiq muhokama bo'yicha nizo va e'tirozlar bo'lmaganligi sababli tuman qurilish bo'limi M.Tursunov, tuman kadastrlar palatasi boshlig'I Sh.Xamdamovlar "Mulk egalari"gi mulklarni baholatish uchun zarur bo'ladigan hujjatlarni o'z vaqtida etkazib berilishini ta'minlasin.

3. Tuman hokimining o'rinbosari S.Xo'djayev hokimlik va mulk egasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasining 2022 yil 29 iyunda qabul qilingan "Yer uchastkalarini kompensatsiya evaziga jamoat extiyojlari uchun olib qo'yish tartib taomillari to'g'risida"gi (O'RQ-781-sonli) Qonunida belgilangan tartibda kelishuv imzolash va kelishuv bitimi notarial tartibda tasdiqlanish choralari ko'rsin.

4. Mazkur ochiq muhokama bayoni ijrosini ta'minlash tuman hokimining o'rinbosari S.Xo'djayev zimmasiga yuklatilsin.

5. Bayonnoma ikkinusxada tuzilib, bayonnoma mulk egalari tanishtirilib, mulk egalari imzosi bilan tasdiqlanib, bir nusxasi tumani hokimligining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha bo'limida saqlansin.

Tashabbuskor


 Tuman hokimi v.v.b, B.To'lamirzayev


Bayonlashtiruvchi:


 T. Ataxanov


Mulk egalari


 Laylidinov Ibroxim

 Xasanoxunov Akmal

 Dolibaev Olimjon


 Tursunov Ibroxim

 Turaxanov Maxamadolim


 Sobirova Shoxida



Ko'prikboshi, MFYraisi

 B. Abdullayev

Qumto'g'on, MFYraisi

 D. Vekirov